



FARG‘ONA VILOYATI QUVASOY SHAHAR HOKIMINING QARORI

2025-yil 30-dekabr

286-11-167-Q/25

Quvasoy shahar hokimligi

Farg‘ona viloyati hokimining 2025-yil 16-dekabrdagi “Viloyat hokimining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek, ba’zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida”gi 632-11-0-Q/25-sonli qarori ijrosi haqida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek, ba’zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida”gi 740-sonli qarori hamda Farg‘ona viloyati hokimining 2025-yil 16-dekabrdagi 632-11-0-Q/25-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek, ba’zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida”gi 740-sonli qarori xususida qabul qilingan viloyat hokimining 2025-yil 16-dekabrdagi 632-11-0-Q/25-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qaror bilan Farg‘ona viloyati hokimining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilgani hamda ayrim qarorlari o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblangani ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Shahar hokimining 1-ilovaga muvofiq ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin.

4. Qaror talablaridan kelib chiqib:

Quvasoy shahar hokimligi huzuridagi Umummilliy birdamlik va hamjihatlikni ta‘minlash bo‘yicha jamoatchilik kengashi to‘g‘risida nizom 2-ilovaga muvofiq;

Shahar hokimligi huzuridagi Umummilliy birdamlik va hamjihatlikni ta‘minlash bo‘yicha jamoatchilik kengashi tarkibi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin;

5. Shahar hokimining 2020-yil 3-dekabrdagi 641-sonli qarorining 3 va 4 – ilovalari o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish shahar hokimining o‘rinbosari A.Mamajonov zimmasiga yuklansin

Shahar hokimi



Z.K.To‘rakulov

**Shahar hokimining ayrim qarorlariga kiritilayotgan
o'zgartirish va qo'shimchalar**

2. Shahar hokimining 2020-yil 3-dekabrdagi 641-sonli qarorida:

a) **nomidagi** "Millatlararo totuvlik, bag'rikenglik" so'zlari "Umummilliy birdamlik" so'zlari bilan almashtirilsin;

b) 2-bandning **ikkinchi — beshinchi xatboshilaridagi** hamda 3-banddagi "Millatlararo totuvlik, bag'rikenglik" so'zlari "Umummilliy birdamlik" so'zlari bilan almashtirilsin;

v) **1-ilovada:**

nomidagi "Millatlararo totuvlik, bag'rikenglik" so'zlari "Umummilliy birdamlik" so'zlari bilan almashtirilsin;

1-banddagi "Millatlararo totuvlik, bag'rikenglik" so'zlari "Umummilliy birdamlik" so'zlari bilan almashtirilsin;

3 va 4-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"3. Quyidagilar Jamoatchilik kengashining asosiy vazifalari hisoblanadi:

joylarda millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirish, jamiyatda do'stlik, o'zaro hamjihatlik, bag'rikenglik va birdamlikni mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirilishiga ko'maklashish;

umummilliy birdamlik, hamjihatlik va bag'rikenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha davlat organlari bilan nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari o'rtasida samarali hamkorlikni ta'minlashda ko'maklashish;

millatlararo totuvlik, hamjihatlik va bag'rikenglik sohasida davlat siyosatini hududlarda amalga oshirilishi uchun mas'ul bo'lgan davlat organlari faoliyati bo'yicha jamoatchilik nazoratini olib borish;

hududlarda turli millat va elatlarning o'ziga xos xususiyatlarini saqlab qolish maqsadida joylarda etnoturizmni rivojlantirish ishlarida hamkorlik qilish;

xalq diplomatiyasi mexanizmlari orqali xorijiy mamlakatlar bilan ijtimoiy-madaniy va do'stlik aloqalari hamda O'zbekistonning xalqaro maydondagi ijobiy imijini mustahkamlashda ishtirok etish va takliflar ishlab chiqish;

O'zbekistonning yagona xalqi hamda xorijdagi vatandoshlarning jamiyatning mushtarak maqsadlari yo'lida birdamligi, umummilliy hamjihatlik masalalarini o'rganish, tahlil qilish hamda takliflar tayyorlash.

4. Jamoatchilik kengashi o'zining asosiy vazifalariga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

umummilliy totuvlik, hamjihatlik va bag'rikenglikni mustahkamlashga qaratilgan davlat siyosatini hududlarda izchil amalga oshirilishida ko'maklashadi;

turli millat vakillari yashayotgan hududlar aholisining maishiy va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini o'rganib, tahlil qilib boradi, ularning yechimlari bo'yicha takliflar tayyorlaydi;

jamiyatda do'stlik, o'zaro ishonch va tushunish muhitini asrab-avaylash hamda mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga

oshirishda ishtirok etadi;

davlat tashkilotlari va nodavlat tashkilotlar, fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikda yoshlarni umummilliy qadriyatlar atrofida birlashtiruvchi targ'ibot tadbirlarini amalga oshiradi;

millatlararo totuvlik, hamjihatlik va bag'rikenglikni mustahkamlashga yo'naltirilgan ijtimoiy tashabbuslarni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash yuzasidan takliflar ishlab chiqadi;

aholi orasida umummilliy totuvlik, do'stlik, birdamlik va bag'rikenglikni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqishda ishtirok etadi, uni davlat tashkilotlari va nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirishga ko'maklashadi;

mamlakatdagi barcha millat va elatlarning konstitutsiyaviy huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ular o'rtasida o'zaro tushunish hamda yordam hissini kuchaytirishga zarur shart-sharoit yaratish bo'yicha joylardagi davlat organlarining faoliyatida jamoatchilik nazoratini olib boradi;

yurtimizda yashovchi turli millat va elatlar vakillarining o'ziga xos an'analari, urf-odatlarini va rasm-rusumlarini asrab-avaylashga ko'maklashadi;

mamlakatimizga ishlash, ta'lim olish maqsadida uzoq muddatga kelgan xorijiy fuqarolarning mahalliy shart-sharoitlarga va ijtimoiy-madaniy moslashuvini ta'minlash va umumiy manfaatlarni ro'yobga chiqarishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqishda hamda uni o'zaro hamkorlikda amalga oshirishda ishtirok etadi;

umummilliy manfaatlarga xizmat qiluvchi madaniy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishda milliy madaniy markazlarga ko'maklashadi;

xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini rivojlantirish bo'yicha dasturlarni ishlab chiqishda va amalga oshirishda ishtirok etadi;

mamlakatimizda tug'ilgan buyuk olim va mutafakkirlarning barhayot merosini, ularning jahon ilm-fani va madaniyati rivojiga qo'shgan hissasini keng namoyon etish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishda ishtirok etadi;

yurtimiz va xorijiy mamlakatlar hududlari o'rtasida do'stlik, o'zaro ishonch va birodarlik aloqalarini o'rnatish hamda rivojlantirishda manfaatdor tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi va ko'maklashadi;

jamiyatda milliy, etnik omillar sababli yuzaga kelishi mumkin bo'lgan bahsli holatlarning oldini olish bo'yicha takliflar tayyorlaydi, bu boradagi ishlarni tashkil etishga ko'maklashadi;

xorijdagi vatandoshlar jamoalari bilan hamkorlikning yangi "o'sish nuqta"larini belgilashga qaratilgan maqsadli loyiha va dasturlar ishlab chiqishda ishtirok etadi;

xorijiy mamlakatlardagi vatandoshlarni mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy, investitsiyaviy, turistik va boshqa yo'nalishlardagi startap loyihalarda faol ishtirok etishga jalb qilish orqali ularda tarixiy Vatani rivojiga daxldorlik tuyg'usini kuchaytirishga qaratilgan takliflarni ishlab chiqadi;

o'z vazifalarini amalga oshirishda nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, shuningdek, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari hamda fuqarolar bilan hamkorlik qiladi;

sohaga oid mavjud muammolarning ta'sirchan yechimini nazarda tutuvchi tashabbusli loyihalarni amalga oshirish uchun davlat ijtimoiy buyurtmasini

qonunchilikka muvofiq shakllantirishda Qo‘mitaga ko‘maklashadi”;

29 — 31-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“29. Jamoatchilik kengashining tashkiliy-texnik ta‘minoti Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari tomonidan, shuningdek, qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga amalga oshiriladi.

30. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari huzuridagi Umummilliy birdamlik va hamjihatlikni ta‘minlash bo‘yicha jamoatchilik kengashlari o‘z vakolatiga kiruvchi masalalar bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo‘yicha qo‘mitasi huzuridagi Jamoatchilik kengashi bilan hamkorlik qiladi.

31. Jamoatchilik kengashining qarorlari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari huzuridagi Umummilliy birdamlik va hamjihatlikni ta‘minlash bo‘yicha jamoatchilik kengashlarining faoliyatini tashkil etish bilan bog‘liq qarorlari yuzasidan belgilangan tartibda shikoyat qilinishi mumkin»;

g) 2-ilovada:

nomidagi “Millatlararo totuvlik, bag‘rikenglik” so‘zlari “Umummilliy birdamlik” so‘zlari bilan almashtirilsin;

1-banddagi “Millatlararo totuvlik, bag‘rikenglik” so‘zlari “Umummilliy birdamlik” so‘zlari bilan almashtirilsin;

3 va 4-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“3. Quyidagilar Jamoatchilik kengashining asosiy vazifalari hisoblanadi: joylarda millatlararo munosabatlarni uyg‘unlashtirish, jamiyatda do‘stlik, o‘zaro hamjihatlik, bag‘rikenglik va birdamlikni mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilishiga ko‘maklashish;

umummilliy birdamlik va hamjihatlikni ta‘minlash masalalari bo‘yicha joylarda davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan samarali hamkorligini ta‘minlashda ko‘maklashish;

millatlararo munosabatlar sohasida davlat siyosati amalga oshirilishi uchun joylarda mas‘ul davlat organlari faoliyati bo‘yicha jamoatchilik nazoratini olib borish;

O‘zbekistonning yagona xalqi hamda xorijdagi vatandoshlarning o‘zaro birdamligi, umummilliy hamjihatlik masalalarini o‘rganish, takliflar tayyorlash.

4. Jamoatchilik kengashi o‘zining asosiy vazifalariga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

joylarda umummilliy totuvlik, hamjihatlik va bag‘rikenglikni mustahkamlashga qaratilgan davlat siyosatini izchil amalga oshirilishida ko‘maklashadi;

turli millat vakillari yashayotgan hududlar aholisining maishiy va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini o‘rganib, tahlil qilib boradi, ularning yechimlari bo‘yicha takliflar tayyorlaydi;

millatlararo totuvlik, do‘stlik va hamjihatlikni qaror toptirishga yo‘naltirilgan ijtimoiy tashabbuslarni rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash yuzasidan takliflar tayyorlaydi;

aholi orasida umummilliy totuvlik, do‘stlik, birdamlik va bag‘rikenglikni

mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishda ishtirok etadi, uni davlat tashkilotlari va nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirishga ko'maklashadi;

mamlakatdagi barcha millat va elatlarning konstitutsiyaviy huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ular o'rtasida o'zaro tushunish hamda yordam hissini kuchaytirishga zarur shart-sharoit yaratish bo'yicha davlat organlarining faoliyatida jamoatchilik nazoratini olib boradi;

hududda yashovchi turli millat va elatlar vakillarining o'ziga xos an'analari, urf-odatlar va rasm-rusumlarini asrab-avaylashga ko'maklashadi;

mamlakatimizga ishlash, ta'lim olish maqsadida uzoq muddatga kelgan xorijiy fuqarolarning mahalliy shart-sharoitlarga va ijtimoiy-madaniy moslashuviga ko'maklashishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirishda ishtirok etadi;

mamlakatimizda tug'ilgan buyuk olim va mutafakkirlarning barhayot merosini, ularning jahon ilm-fani va madaniyati rivojiga qo'shgan hissasini keng namoyon etish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishda ishtirok etadi;

yurtimiz va xorijiy mamlakatlar hududlari o'rtasida do'stlik, o'zaro ishonch va birodarlik aloqalarini o'rnatish hamda rivojlantirish bo'yicha takliflar tayyorlaydi;

xorijiy mamlakatlardagi vatandoshlar bilan aloqalarni mustahkamlashga, ularni O'zbekiston taraqqiyotiga daxldorlik tuyg'usini kuchaytirishga qaratilgan takliflarni ishlab chiqadi;

o'z vazifalarini amalga oshirishda nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, shuningdek, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari hamda fuqarolar bilan hamkorlik qiladi;

sohaga oid mavjud muammolarning ta'sirchan yechimini nazarda tutuvchi tashabbusli loyihalarni amalga oshirish uchun davlat ijtimoiy buyurtmasini qonunchilikka muvofiq shakllantirishda Qo'mitaga ko'maklashadi";

29 va 30-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"29. Jamoatchilik kengashining tashkiliy-texnik ta'minoti tuman (shahar) hokimliklari tomonidan, shuningdek, qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga amalga oshiriladi.

30. Tumanlar (shaharlar) hokimliklari huzuridagi Umummilliy birdamlik va hamjihatlikni ta'minlash bo'yicha jamoatchilik kengashlari o'z vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari huzuridagi Umummilliy birdamlik va hamjihatlikni ta'minlash bo'yicha jamoatchilik kengashlari, O'zbekiston Respublikasi Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo'yicha qo'mitasi huzuridagi Jamoatchilik kengashi bilan hamkorlik qiladi";

31-banddagi "Millatlararo totuvlik, bag'rikenglik" so'zlari "Umummilliy birdamlik" so'zlari bilan almashtirilsin;

d) 3-ilovaning **matni** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

**Quvasoy shahar hokimligi huzuridagi Umummilliy birdamlik va
hamjihatlikni ta'minlash bo'yicha jamoatchilik kengashi to'g'risida
NIZOM**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur nizom shahar hokimligi huzuridagi Umummilliy birdamlik va hamjihatlikni ta'minlash bo'yicha jamoatchilik kengashining (keyingi o'rinlarda - Jamoatchilik kengash) asosiy vazifalari, funksiyalari, huquq va majburiyatlari, shuningdek, faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Jamoatchilik kengashi o'z faoliyatini mustaqil amalga oshiruvchi maslahat organi hisoblanadi.

Jamoatchilik kengashi shahar hokimligi huzurida tuziladi hamda uning faoliyati belgilangan hududga nisbatan tatbiq etiladi.

**2-bob. Jamoatchilik kengashining asosiy vazifalari,
funktsiyalari, huquq va majburiyatlari**

3. Quyidagilar Jamoatchilik kengashining asosiy vazifalari hisoblanadi:

joylarda millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirish, jamiyatda do'stlik, o'zaro hamjihatlik, bag'rikenglik va birdamlikni mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirilishiga ko'maklashish;

umummilliy birdamlik, hamjihatlik va bag'rikenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha davlat organlari bilan nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari o'rtasida samarali hamkorlikni ta'minlashda ko'maklashish;

millatlararo totuvlik, hamjihatlik va bag'rikenglik sohasida davlat siyosatini hududlarda amalga oshirilishi uchun mas'ul bo'lgan davlat organlari faoliyati bo'yicha jamoatchilik nazoratini olib borish;

hududlarda turli millat va elatlarning o'ziga xos xususiyatlarini saqlab qolish maqsadida joylarda etnoturizmni rivojlantirish ishlarida hamkorlik qilish;

xalq diplomatiyasi mexanizmlari orqali xorijiy mamlakatlar bilan ijtimoiy-madaniy va do'stlik aloqalari hamda O'zbekistonning xalqaro maydondagi ijobiy imijini mustahkamlashda ishtirok etish va takliflar ishlab chiqish;

O'zbekistonning yagona xalqi hamda xorijdagi vatandoshlarning jamiyatning mushtarak maqsadlari yo'lida birdamligi, umummilliy hamjihatlik masalalarini o'rganish, tahlil qilish hamda takliflar tayyorlash.

4. Jamoatchilik kengashi o'zining asosiy vazifalariga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

umummilliy totuvlik, hamjihatlik va bag'rikenglikni mustahkamlashga qaratilgan davlat siyosatini hududlarda izchil amalga oshirilishida ko'maklashadi;

turli millat vakillari yashayotgan hududlar aholisining maishiy va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini o'rganib, tahlil qilib boradi, ularning yechimlari bo'yicha

takliflar tayyorlaydi;

jamiyatda do'stlik, o'zaro ishonch va tushunish muhitini asrab-avaylash hamda mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadi;

davlat tashkilotlari va nodavlat tashkilotlar, fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikda yoshlarni umummilliy qadriyatlar atrofida birlashtiruvchi targ'ibot tadbirlarini amalga oshiradi;

millatlararo totuvlik, hamjihatlik va bag'rikenglikni mustahkamlashga yo'naltirilgan ijtimoiy tashabbuslarni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash yuzasidan takliflar ishlab chiqadi;

aholi orasida umummilliy totuvlik, do'stlik, birdamlik va bag'rikenglikni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqishda ishtirok etadi, uni davlat tashkilotlari va nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirishga ko'maklashadi;

mamlakatdagi barcha millat va elatlarning konstitutsiyaviy huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ular o'rtasida o'zaro tushunish hamda yordam hissini kuchaytirishga zarur shart-sharoit yaratish bo'yicha joylardagi davlat organlarining faoliyatida jamoatchilik nazoratini olib boradi;

yurtimizda yashovchi turli millat va elatlar vakillarining o'ziga xos an'analari, urf-odatlarini va rasm-rusumlarini asrab-avaylashga ko'maklashadi;

mamlakatimizga ishlash, ta'lim olish maqsadida uzoq muddatga kelgan xorijiy fuqarolarning mahalliy shart-sharoitlarga va ijtimoiy-madaniy moslashuvini ta'minlash va umumiy manfaatlarni ro'yobga chiqarishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqishda hamda uni o'zaro hamkorlikda amalga oshirishda ishtirok etadi;

umummilliy manfaatlarga xizmat qiluvchi madaniy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishda milliy madaniy markazlarga ko'maklashadi;

xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini rivojlantirish bo'yicha dasturlarni ishlab chiqishda va amalga oshirishda ishtirok etadi;

mamlakatimizda tug'ilgan buyuk olim va mutafakkirlarning barhayot merosini, ularning jahon ilm-fani va madaniyati rivojiga qo'shgan hissasini keng namoyon etish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishda ishtirok etadi;

yurtimiz va xorijiy mamlakatlar hududlari o'rtasida do'stlik, o'zaro ishonch va birodarlik aloqalarini o'rnatish hamda rivojlantirishda manfaatdor tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi va ko'maklashadi;

jamiyatda milliy, etnik omillar sababli yuzaga kelishi mumkin bo'lgan bahsli holatlarning oldini olish bo'yicha takliflar tayyorlaydi, bu boradagi ishlarni tashkil etishga ko'maklashadi;

xorijdagi vatandoshlar jamoalari bilan hamkorlikning yangi «o'sish nuqta»larini belgilashga qaratilgan maqsadli loyiha va dasturlar ishlab chiqishda ishtirok etadi;

xorijiy mamlakatlardagi vatandoshlarni mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy, investitsiyaviy, turistik va boshqa yo'nalishlardagi startap loyihalarda faol ishtirok etishga jalb qilish orqali ularda tarixiy Vatani rivojiga daxldorlik tuyg'usini kuchaytirishga qaratilgan takliflarni ishlab chiqadi;

o'z vazifalarini amalga oshirishda nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, shuningdek, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari hamda

fuqarolar bilan hamkorlik qiladi;

sohaga oid mavjud muammolarning ta'sirchan yechimini nazarda tutuvchi tashabbusli loyihalarni amalga oshirish uchun davlat ijtimoiy buyurtmasini qonunchilikka muvofiq shakllantirishda Qo'mitaga ko'maklashadi»;

5. Jamoatchilik kengashi o'zining asosiy vazifalari va funksiyalarini bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

o'z vakolatlari doirasida davlat organlaridan kerakli hujjatlar, statistik va tahliliy ma'lumotlarni so'rab olish va qabul qilish;

Jamoatchilik kengashi vakolatiga tegishli masalalarni hal qilish uchun Jamoatchilik kengashi a'zolaridan iborat jamoatchilik komissiyalarini tashkil etish;

shahar hokimi bilan kelishgan holda umummilliy birdamlik va hamjihatlikni ta'minlashga bag'ishlab o'tkaziladigan yig'ilishlar va boshqa tadbirlarda ishtirok etish;

turli millat vakillari hamda ular oila a'zolarining konstitutsiyaviy huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini tahliliy o'rganish;

shahar hokimligiga Jamoatchilik kengashi vakolatiga tegishli masalalar bo'yicha takliflar kiritish;

shahar hokimligi hamda Jamoatchilik kengashi tomonidan tashkil etiladigan tadbirlarga davlat, jamoat, madaniyat va san'at arboblari, olimlar, mutaxassislar, nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini jalb qilish, shuningdek, ular bilan hamkorlikda tadbirlar tashkil qilish;

Jamoatchilik kengashining faoliyati haqida ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish.

Jamoatchilik kengashi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

6. Jamoatchilik kengashi o'z faoliyatini amalga oshirishda quyidagi majburiyatlarga ega:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, vazirliklar va idoralar tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, mazkur Nizomga va boshqa qonun hujjatlariga rioya qilishi;

davlat organi va uning mansabdor shaxslarining o'z vakolatlari doirasida amalga oshiradigan faoliyatiga aralashmasligi;

davlat organi va uning mansabdor shaxslari faoliyat ko'rsatishi uchun to'sqinlik qilmasligi;

fuqarolarning or-nomusi va qadr-qimmatini tahqirlashga, ularning shaxsiy hayotiga aralashishga yo'l qo'ymasligi;

jamoatchilik nazoratini amalga oshirish davomida olingan axborotning, agar bunday axborotni tarqatish qonun bilan cheklangan bo'lsa, maxfiyligiga rioya qilishi shart.

Jamoatchilik kengashiga qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham yuklanishi mumkin.

3-bob. Jamoatchilik kengashining tarkibi

7. Jamoatchilik kengashining tarkibiga uning raisi, mas'ul kotib va a'zolari kiradi. Jamoatchilik kengashi o'z faoliyatini jamoatchilik asosida olib boradi.

8. Shahar hokimi yoki uni vazifasini bajaruvchi shaxs Jamoatchilik kengashining raisi hisoblanadi.

Jamoatchilik kengashining namunaviy tarkibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Jamoatchilik kengashining a'zosi boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning o'rniga ushbu lavozimga yangi tayinlangan yoki uning vazifasini bajarish zimmasiga yuklangan shaxs kiritiladi.

Milliy madaniy markazlar hamda do'stlik jamiyatlari faxriylari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining boshqa fuqarolari Jamoatchilik kengashining tarkibiga kiritilishi mumkin.

9. Quyidagi holatlarda Jamoatchilik kengashining raisi, mas'ul kotibi va a'zolari uning tarkibidan chiqarilishi mumkin:

Jamoatchilik kengashining majlislarida muntazam ravishda ishtirok etmaganda, mazkur Nizomda nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarmaganda;

ularga nisbatan chiqarilgan sudning ayblov hukmi qonuniy kuchga kirganda;

vafot etganda, shuningdek, sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori asosida ular muomalaga layoqatsiz, bedarak yo'qolgan yoki vafot etgan deb topilganda.

10. Jamoatchilik kengashining tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlar va unga kiritilgan o'zgartirishlar ular tasdiqlangan paytdan boshlab 5 kun ichida Jamoatchilik kengashining rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

11. Jamoatchilik kengashining raisi Jamoatchilik kengashi faoliyatiga umumiy rahbarlik qiladi hamda quyidagi vakolatlarni amalga oshiradi:

Jamoatchilik kengashining shaxsiy tarkibini tasdiqlash;

Jamoatchilik kengashi majlisini chaqirish, kun tartibini va majlisni olib borish tartibini belgilash;

Jamoatchilik kengashi majlisiga raislik qilish;

Jamoatchilik kengashining ish rejasi, Jamoatchilik kengashi majlisining bayonnomasi va Jamoatchilik kengashining ish yurituviga oid boshqa hujjatlarini tasdiqlash;

Jamoatchilik kengashi qarorlarining bajarilishini nazorat qilish;

Jamoatchilik kengashi a'zolarining zimmasiga yuklatilgan topshiriqlar bajarilishini va faoliyatini muvofiqlashtirish;

Vazirlar Mahkamasiga Jamoatchilik kengashiga kiruvchi shaxslarni uning tarkibidan chiqarish bo'yicha takliflar kiritish;

Jamoatchilik kengashi a'zolarining uning faoliyatida ishtirok etish tartibini belgilash;

Jamoatchilik kengashi yig'ilishlarini o'tkazish muddatlari va tartibini aniqlash;

Jamoatchilik kengashi doimiy ishchi organining ish tartibini belgilash;

Jamoatchilik kengashi a'zolarining vakolatlarini to'xtatish bo'yicha takliflar kiritish;

Jamoatchilik kengashida tadbirlarga tayyorgarlik ko'rish va tadbirlarni o'tkazish tartibini belgilash;

Jamoatchilik kengashining samarali ishini ta'minlash bo'yicha boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

12. Jamoatchilik kengashining mas'ul kotibi:

Jamoatchilik kengashining majlisiga kerakli hujjatlar o'z vaqtida tayyorlanishini ta'minlaydi;

Jamoatchilik kengashi majlisining kun tartibi bo'yicha o'tishini tashkil etadi;

Jamoatchilik kengashining raisi bilan majlisni o'tkazish muddati, joyi hamda taklif qilinuvchilar haqida kelishadi;

Jamoatchilik kengashi a'zolari va taklif qilingan shaxslarni majlisni o'tkazish joyi, sanasi va vaqti haqida xabardor qiladi;

Jamoatchilik kengashi qarorlarining bajarilishi monitoringini olib boradi va uning natijalarini Jamoatchilik kengashi majlisida ko'rib chiqish bo'yicha taklif kiritadi;

Jamoatchilik kengashi bayonnomasini rasmiylashtiradi hamda tasdiqlangan bayonnomani Jamoatchilik kengashi a'zolariga va boshqa manfaatdor shaxslarga yuborilishini ta'minlaydi;

Jamoatchilik kengashining rasmiy veb-saytida va boshqa resurslarda joylashtiriladigan Jamoatchilik kengashining faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar tarkibi bo'yicha takliflar kiritadi va uni rais bilan kelishadi;

Jamoatchilik kengashi qarorlarini bajarish masalalari yuzasidan davlat organlari rahbarlari bilan hamkorlik qiladi;

fuqarolarni va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qiladi hamda ariza, taklif va shikoyatlarni ko'rib chiqish ishlarini tashkil etadi;

qonun hujjatlari va Jamoatchilik kengashi qarorlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

13. Jamoatchilik kengashining a'zolari:

Jamoatchilik kengashi majlislarida ko'riladigan masalalarni hal qilish va muhokama qilishda o'z vakolatlarini boshqaga berish huquqisiz qatnashadilar. Jamoatchilik kengashi a'zolari ayrim hollarda uning majlislarida qatnasha olmagan taqdirda, o'z fikrlarini yozma tarzda Jamoatchilik kengashi mas'ul kotibiga taqdim etishlari mumkin va ko'rsatib o'tilgan fikrlar majlisda ko'rib chiqiladi va ovoz berishda hisobga olinadi;

Umummilliy birdamlik va hamjihatlikni ta'minlash borasidagi faoliyatni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar va davlat organlari ichki idoraviy hujjatlarini yanada takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadilar;

Jamoatchilik kengashining kun tartibiga kiritilgan masalalar yuzasidan tahliliy materiallar tayyorlaydilar;

Jamoatchilik kengashining vakolatiga kiradigan masalalar bilan bog'liq murojaatlarni ko'rib chiqadilar va natijalari bo'yicha tegishli hujjatlarni tayyorlaydilar;

turli millat vakillari va ularning oila a'zolarining huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash bo'yicha Jamoatchilik kengashiga takliflar kiritadilar.

4-bob. Jamoatchilik kengashining ishchi organi

14. Jamoatchilik kengashining ishchi organi tarkibi shahar hokimining tegishli o'rinbosari kotibiyati hamda Jamoatchilik kengashining a'zolaridan shakllantiriladi.

15. Jamoatchilik kengashining ishchi organi:

Jamoatchilik kengashi faoliyatining metodik, tashkiliy-huquqiy, tashkiliy-texnik ta'minot masalalarini hal qiladi;

Jamoatchilik kengashining ish rejalari loyihalarini tayyorlaydi, Jamoatchilik kengashiga ko'rib chiqish uchun kiritadi va tasdiqlangan ish rejasining bajarilishini ta'minlaydi;

Jamoatchilik kengashining navbatdagi majlisiga barcha zarur hujjatlarni tayyorlaydi, shahar hokimligi xodimlaridan kerakli hujjatlar va ma'lumotlarni so'rab oladi;

Jamoatchilik kengashi majlisining kun tartibidagi masalalar bo'yicha tahliliy materiallar tayyorlaydi;

Jamoatchilik kengashi vakolatlariga kiruvchi murojaatlarni ko'rib chiqadi va tegishli hujjatlarni tayyorlaydi;

Jamoatchilik kengashi tomonidan berilgan boshqa vazifalarni amalga oshiradi.

5-bob. Jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil qilish

16. Jamoatchilik kengashi o'zining vakolatlariga kiritilgan masalalar yuzasidan, shuningdek, uning ichki faoliyatini tashkil etish masalalari yuzasidan qarorlar qabul qiladi.

Jamoatchilik kengashi faoliyatining asosiy masalalari Jamoatchilik kengashi majlislarida ko'rib chiqiladi. Jamoatchilik kengashi majlisi Jamoatchilik kengashining ish rejasi asosida kamida har chorakda bir marotaba chaqiriladi.

Jamoatchilik kengashining raisi Jamoatchilik kengashi a'zolarining kamida uchdan bir qismining yozma murojaati asosida navbatdan tashqari majlis chaqirishi mumkin.

17. Jamoatchilik kengashi majlislariga milliy madaniy markazlar, do'stlik jamiyatlari, davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari vakillari taklif qilinishi shart.

Jamoatchilik kengashi majlisiga taklif qilinuvchi shaxslar ro'yxati Jamoatchilik kengashi raisi bilan kelishgan holda, Jamoatchilik kengashi mas'ul kotibi tomonidan shakllantiriladi.

18. Jamoatchilik kengashi majlisining kun tartibi loyihasi Jamoatchilik kengashi a'zolarining takliflari va Jamoatchilik kengashi raisi topshirig'i asosida uning mas'ul kotibi tomonidan shakllantiriladi.

19. Jamoatchilik kengashi majlislari uning raisi tomonidan olib boriladi.

Jamoatchilik kengashi majlislarida shahar hokimining o'rinbosarlari yoki boshqa xodimlar ishtirok etishi mumkin.

20. Jamoatchilik kengashi majlisi, agar unda Jamoatchilik kengashi a'zolarining kamida uchdan ikki kismi (kvorum) ishtirok etgan taqdirda, vakolatli hisoblanadi.

Majlisni o'tkazish uchun kvorum shakllanmagan taqdirda, Jamoatchilik

kengashining yangi majlisi o'tkaziladigan sana e'lon qilinadi.

Jamoatchilik kengashining a'zolari o'z majlislarida ko'rib chiqiladigan masalalarni muhokama qilish va hal qilishda o'z vakolatini boshqalarga o'tkazish huquqiga ega emas.

21. Jamoatchilik kengashining qarori uning majlisida qatnashayotgan a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Agar ovozlar teng kelib qolsa, Jamoatchilik kengashi raisining ovozi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

22. Jamoatchilik kengashi qaror qabul qilishda masalalarni erkin muhokama qilish, ovoz berish, jamoatchilik fikrini inobatga olish, tenglik va kollegiallikka asoslanadi.

23. Jamoatchilik kengashining har bir a'zosi qabul qilingan qarorga o'zining fikrlarini yozma tarzda bildirish huquqiga ega. Bunda fikrlar Jamoatchilik kengashi majlisi bayonnomasiga kiritib qo'yiladi.

24. Jamoatchilik kengashining qarori qabul qilingan kundan boshlab uch ish kunidan kechikmasdan tegishli davlat organlariga yuboriladi.

Jamoatchilik kengashining qarori tavsiyaviy xususiyatga egadir. Agar qaror davlat organlari tomonidan ma'qullanmasa, ular qaror qabul qilingan kundan boshlab o'n kundan kechikmasdan Jamoatchilik kengashiga asoslantirilgan javobini taqdim qiladi.

25. Tezkor qaror qabul qilish zarurati yuzaga kelganda, Jamoatchilik kengashining qarori Jamoatchilik kengashi raisi tashabbusi bilan uning a'zolari bilan maslahatlashilgan holda so'rov yo'li bilan qabul qilinishi mumkin.

26. Jamoatchilik kengashi majlisida qabul qilingan qaror majlis bayonnomasi bilan rasmiylashtiriladi. Bayonnomasi Jamoatchilik kengashi kotibi tomonidan imzolanadi, majlisga raislik qiluvchi tomonidan tasdiqlanadi hamda uch kunlik muddatda Jamoatchilik kengashi a'zolariga va boshqa manfaatdor shaxslarga yuboriladi.

27. Jamoatchilik kengashining ishchi organi va mas'ul kotibi Jamoatchilik kengashi a'zolari bilan birgalikda Jamoatchilik kengashi qarorlarini ijro etish yo'llarini tizimli o'rganadi va ko'rib chiqadi, zarur hollarda, Jamoatchilik kengashi raisiga takliflar kiritadi.

28. Ishchi organ Jamoatchilik kengashi karorlarini ijro etish natijalari haqida har oyda Jamoatchilik kengashi raisiga ma'lumot taqdim etadi.

b-bob. Yakunlovchi qoidalar

29. Jamoatchilik kengashining tashkiliy-texnik ta'minoti shahar hokimligi tomonidan, shuningdek, qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga amalga oshiriladi.

30. Shahar hokimligi huzuridagi Umummilliy birdamlik va hamjihatlikni ta'minlash bo'yicha jamoatchilik kengashi o'z vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha viloyat hokimligi huzuridagi Umummilliy birdamlik va hamjihatlikni ta'minlash bo'yicha jamoatchilik kengashi bilan hamkorlik qiladi.

31. Jamoatchilik kengashining qarorlari hamda shahar hokimligi huzuridagi Umummilliy birdamlik va hamjihatlikni ta'minlash bo'yicha jamoatchilik kengashining faoliyatini tashkil etish bilan bog'liq qarorlari yuzasidan belgilangan tartibda shikoyat qilinishi mumkin.

**Quvasoy shahar hokimligi huzuridagi Umummilliy birdamlik va
hamjihatlikni ta'minlash bo'yicha jamoatchilik kengashining**

TARKIBI

- | | | |
|-----------------------|---|---|
| 1. Z.To'raqulov | — | Shahar hokimi, <i>Jamoatchilik kengashi raisi</i> |
| 2. A.Mamajonov | — | Shahar hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari, <i>Jamoatchilik kengashi raisi o'rinbosari</i> |
| 3. N.Ubaydullayeva | — | Shahar hokimining o'rinbosari — Oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i |
| 4. B.Toxirjonov | — | Shahar Adliya bo'limi boshlig'i |
| 5. J.Mo'ysinjonov | — | Yoshlar ishlari agentligining shahar bo'limi boshlig'i |
| 6. A.O'rinboyev | — | Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining shahar bo'limi rahbari |
| 7. T.O'rinboyev | — | Faol nuroniy |
| 8. Lavozimiga ko'ra | — | Milliy madaniy faoli |
| 9. O'.Karimova | — | "Isfayram" ro'znomasi bosh muharriri |
| 10. Kelishuvga asosan | — | fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari vakillari |
| 11. Z.Abduraxmonov | — | O'zbekiston mahallalari uyushmasi shahar bo'limi boshlig'i, <i>Jamoatchilik kengashi kotibi</i> |

Izoh. Jamoatchilik kengashi a'zosi boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangi tayinlangan yoki zimmasiga tegishli vazifalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.